



2024-yil. 3-sod

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>



*Bahor keldi
seni so'roqlab...*

*Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yershorda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...*

*Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan qabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.*

*Mana qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekindi nari.*



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay’ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To’lqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulkumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo’ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To’maris Butunbayeva
Ramziddin Abdusatorov
Okila Turakulova
Yuldush Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Lutfullo JO’RAYEV
Bibimaryam RAHMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko’chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Xamza Elliyev. O’quvchilar bilimini baholashda yangi yondashuvlar tahlili..... 3

TADQIQOT

Sanobar Ulliyeva. O’tkir Hoshimov qissalarida obraz yaratuvchi semantik birliklar.6	6
Shohzoda Tursunboyeva. O’zbek adabiyotida epik syujet tadriji.....8	8
Sitorabonus Ataullayeva. Adabiyotda ayol xarakteri.....10	10
Atadjan Djumashev. Hozirgi o’zbek adabiy tiliga chet tillaridan o’zlashgan qurilishterminlari.....13	13
Shahodat Raxmatullayeva. Ona tili darslarida o’quvchilarni savol o’quv topshirig’i ustida ishlashga o’rgatish.....16	16
Dildora Nizomiddinova, Nozima Inomova, Sitora Qaimova. Farg’ona vodiysi tarixiy antropotoponimlari xususida.....18	18
Mahliyo Elboyeva, Yarmuxammamat Madaliyev. O’zbek adabiyotini o’qitishda zamonaviy yondashuvlarning ustuvor yo’nalishlari.....21	21
Sanjar Mavlyanov. O’zbek tili diplomatik terminlarining takomillashuvi masalalari.....23	23
Lola Ibragimova. Tibbiyotga oid ingliz va o’zbek maqollarining kognitiv asoslari.....27	27
Iroda Ishonxonova. Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’qitishda tarixiy va zamonaviy manbalarning ahamiyati.....30	30
Doston Abulxayirov. Teaching pragmatics in the digital age: an investigation of the effectiveness of computer-mediated communication in developing pragmatic competence.....33	33
Malika Matkarimova. Using electronic dictionary for reading skills.....35	35
Umida Muxammadiyeva. Features of historical and current state of uzbek english intercultural literary relations.....37	37
Ramina Shukurova. Linguocultural specificity of phraseological units in the process of teaching languages.....41	41
Наргиза Ходжаева. Интерактивные современные методы преподавания русского языка как иностранного.....43	43
Умида Улашева. Совершенствование методологии обучения иностранному языку посредством художественной литературы в начальном образовании (на примере английского языка).....45	45
Мунира Шодмонова. Изучение китайских афоризмов в контексте патриотического воспитания.....47	47
Саодат Рахматова. Актуальность формирования навыков академического письма у студентов технических вузов.....50	50
Сауле Турланова. Формирование мотивации самообразования у студентов в системе высшего профессионального образования.....51	51
Мехрибон Шамсиддинова. Анализ учебных пособий для преподавания китайского языка.....53	53

O’zbekiston Respublikasi Olyi ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Olyi attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo’yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.

<https://oak.uz/pages/4802>

TAHLIL

O'tkir Abdunazarov. Esse janri va Nosir Fozilov ijodi.....	56
Sardor Baxriddinov. G'afur G'ulom asarlardan kelib chiqadigan huquqbizarlik holatlarining bayoni.....	60
Alimardon Ergashev. Said Ahmad "Taqdir, taqdir, muncha beshafqatsan!" hikoyasini blum taksonomiysi orqali o'rganish.....	61
Nargiza Mirzayeva. Mediada bolalar uchun kontent yaratish tamoyillari.....	64
Shohinur Rahmataliyeva. "Alpomish" dostonida Barchin obrazining o'rganilishi.....	66
Amira Ibatova. Non bilan bog'liq leksemalar tahlili.....	68
Nigora Abdusalomova. "Zeverxon" dostonining o'ganilishi.....	70
Normat Yuldashev. Cho'lpon she'reiyatida poetik tilning xalqchillashushi.....	72
Gulhayo Isabayeva. "Quyoshim – enam" qissasida personajlar sisitemasi.....	75
Nazokatxon Tojibayeva. Jamiyatda xotin-qizlarning rolini kuchaytirishga xizmat qiluvchi qaror va farmonlar hamda ularning ijtimoiy ahamiyatliligi.....	76

PEDAGOGIKA

Dilbar Ibragimova, Malika Muxamadiyeva. Xorijiy tillarni o'qitishning ta'lrim tizimida tutgan o'rni va o'qitishning nazariy mezonlari.....	79
Maysara Axmedova. Hadislarda ekologik tarbiya masalalari.....	82
Mohigul Fozilova. O'zbek tili ta'limi jarayonida talabalarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish metodikasi.....	86
Adash Rustamova. Pedagogical approaches and diagnostics of teching in higher education.....	88

METODIK TAVSIYA

Nilufar Abidova. Inklyuziv ta'limg sharoitida olib boriladigan pedagogik faoliyatning pedagogik imkoniyatlari.....	92
Nilufar Turg'unova. Ona tili ta'limga loyiha texnologiyasidan foydalanishga oid mavjud holat tahlili.....	94
Surayyo Inomjonova. Fantastik asarlar orqali o'quvchilarni tanqidiy fikrashga o'rgatish usullari.....	98
Zamira Yuldasheva. Innovatsions texnologiyalar asosida rus tili darslarda mutaxassislik bo'yicha tarjima kompetensiyasini shakllantirish.....	101

TILSHUNOSLIK

Umidaxon Ahmadova. Perifraza va frazeologik birlıklar.....	104
Ezoza Hazratqulova, Shaxlo Botirova. Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi psixolingvistikaning ahamiyati va nutq faoliyat turlari.....	107
Gulshoda Ruziyeva. Sotsiopraktik tahlilda nutqiy aktlarning o'rni.....	111
Nargiza Aliyeva. Evfemizm va ulardan foydalanish asoslari.....	112
Shohsida Eshbo'tayeva. Til tarkibiga musiqa terminlarining ta'siri: dunyo tilshunosligi misolida	114
Nigina Axmedova. Til va madaniyatning o'zaro aloqasi.....	117
Sarvinoz Mardonova, To'lqin Asarov. Ayrim muallif nutqi neologizmlarining leksikografik talqini xususida.....	119
Lobar G'aniyeva. Davlat boshqaruvi terminlarini tematik tasniflash nazariyasи.	122
Manzura Ernazarova. Masofaviy ta'limg jarayonida o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirish.....	124
Maxfuza Axmadiyova. O'zbek tilshunosligida matn muammoising o'ganilishi	126
Sadoqat Samandarovna. Evfemik frazeologizmlar tushunchasi va uning o'ganilish tarixi	128
Dilzodaxon Saydaliyeva. O'zbek struktur tilshunosligining rivojida professor Sh.Iskandarovning o'rni.....	130
Dilara Dospanova. Til va madaniyatning o'zaro ta'sirida antroponimlar	133

KICHIK TADQIQOT

Intizor Abdujabborova. Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy "Sad Irshodi Mullo Sidqiy Xondayliqiy" va "Zarbulmasali Sidqiy" asarlarining o'ganilishi	135
Shohista Abduqodirova, Guli Toirova. Ramziy-majoziy ma'no asosida axborot yetkazish.....	138
Zilola Mirqodirova. The role of pronunciation for english students	142

ijtimoiy psixologik va ijtimoiy kognitiv asoslариниyoritib beradi.

Xulosa qilib aytganda evfemizm idrok va xulq-atvorga ta'sir qilinishi orqali evfemizm motivatsiyasini va muloqotda q'llaniladigan ko'plab funksiyalarni tushunish uchun kalit hisoblanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Ларин Б. А. Об эвфемизмах // Проблемы языкоznания: уч. зап. ЛГУ. 1977. № 301. Вып. 60. С. 110124.
2. Goffman E. Interactional Ritual: Essay on Face-to-Face Behaviour. Garden City, New York: Anchor Books, 1967. 270 p.
3. Allan K., Burridge K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2006. P. 112–118.
4. Hughes G. Political correctness: a history of semantics and culture. New York : Cambridge University Press, 2010. 46 p.
5. Pinker S., Lee J. Rationales for Indirect Speech: The Theory of the Strategic Speaker // Language, Cognition, and Human Nature: selected Articles. Steven Pinker. New York: Oxford University Press, 2013. P. 302-356.
6. McGlone M. S., Beck G., Pfeister A. Contamination and Camouflage in Euphemisms. Chicago: The University of Chicago Press, 2006. P. 261–282.
7. Allan K., Burridge K. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. Oxford: Oxford University Press, 1991. P. 50–58.
8. The American Heritage ® Dictionary of the English Language, Fourth Edition Copyright © 2000 by Houghton Mifflin Company. Published by Houghton Mifflin Company// <http://dictionary.reference.com/search?q=euphemism>
9. The Concise Oxford Dictionary of Current English. 8th ed. / ed. by R. E. Allen. Oxford: Clarendon Press, 1990.

*Shohsida ESHBO'TAYEVA,
ToshDO'TAU, Masofaviy ta'lim
kafedrasи о'qituvchisi*

TIL TARKIBIGA MUSIQA TERMINLARINING TA'SIRI: DUNYO TILSHUNOSLIGI MISOLIDA



Annotatsiya: ushu maqolada musiqa terminlari dunyo tilshunosligi nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Terminlarning til tarkibiga, madaniyatga ta'siri tadqiqotlar tahlili orqali ochib berilgan. Musiqa terminlarining madaniy birlik ekanligi, o'zi bilan muayyan xalqqa xos madaniy tushunchalarini tashishi izohlangan.

Kalit so'zlar: dunyo tilshunosligi, musiqa terminlari, terminologiya, madaniyat, madaniy birlik, integratsiya

Annotation: in this article, musical terms are studied from the point of view of world linguistics. The impact of terms on the structure of the language and culture is revealed through the analysis of research. It is explained that musical terms are a cultural unit, carrying cultural concepts specific to a particular nation.

Key words: world linguistics, musical terms, terminology, culture, cultural unity, integration

Аннотация: в данной статье музыкальные термины изучаются с точки зрения мирового языкоznания. Влияние терминов на структуру языка и культуры выявляется посредством анализа исследований. Поясняется, что музыкальные термины представляют собой культурное единицу несущую в себе культурные понятия, характерные для конкретного народа.

Ключевое слово: мировое языкоznание, музыкальные мермины, терминология, культура, культурное единство, интеграция

Kirish. Bugungi kunda tilni sof saqlab qolish masalasi har bir xalq siyosatining oldiga qo'yilgan dolzarb masalalaridan sanalmoqda. Chunki til tarkibi o'sha tilning kelajakdag'i hayotiyligini ta'minlovchi asosiyl jihatlardan biri. Tilning hayotiyligi esa ayni shu tilda so'zlashuvchilarni xalq sifatida birlashtirib turuvchi omildir. Jahon tillari o'zaro musobaqaga kirishgan bir paytda rivojlanayotgan davlatlar o'z tillarini saqlab qolish maqsadida terminologik

tizimni tartibga solish va o'zlashmalar o'rniga o'z muqobillarini tavsiya qilish haqida bosh qotirmoqdalar.

Dunyo tilshunosligida terminologik tizimni tartib ga solish natijasida tilning hayotiyigini ta'minlash, xalq va uning madaniyatini saqlab qolish mumkinligi turli tadqiqotlar orqali dalillangan. Ushbu tadqiqotda musiqa terminlarining til tarkibiga ta'siri dunyo tilshunosligi misolida tahlil qilingan. Har bir xalq o'z madaniyatiga xos musiqa sifatida ega. Musiqa san'atining lisoniy birliklari sanalgan terminlar muayyan xalqning madaniy birliklari hisoblanib, o'sha xalqning ramziy birligi hamdir. Xullas, madaniyat jamiyatni informatsiya bilan ta'minlash bo'lib, u belgilar tizimi yordamida jamiyatda yig'iladigan ijtimoiy informatsiyadir [1: 52].

Har bir til o'sha tildan foydalanuvchilarning umumiy xarakteri, mental xususiyatlari, yashash hududi, turmush-tarzi, urf-odatlari va madaniyatidan kelib chiqib shakllanadi va rivojlanib boradi. Ushbu rivojlanishga madaniy va lisoniy birlik sanalgan musiqa terminlari sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Ayni shu ta'sirni tadqiqotlar natijalari orqali ko'rsatib berish ishimizning oldiga qo'yilgan asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Asosiy qism. Jahon tilshunosligida etnik madaniyat shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini ifodalovchi til birliklarining etnolingvistik xususiyatlarini aniqlash, til va madaniyatning o'zaro aloqasi, ularning o'zaro ta'siri bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Til va madaniyat munosabati, til tizimidagi milliy o'ziga xos elementlar tadqiqiga oid ishlar xorij olimlaridan V.Gumboldt, A.A.Potebniya, I.L.Vaysgerber, V.N.Teliya, V.V.Vorobyov, V.A.Maslova I.L.Vaysgerber, X.Glins, D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, D.Xaymz, A.Vejbiskaya, E.V.Babaeva, A.Vejbitskaya, L.E.Vilms, V.Maslova, N.V.Barishev, Z.UAbdullahayeva, N.F.Alefierenko, I.A.Murzinova, Z.K.Sabitova, O.Bicher, I.A.Murzinova va boshqalarning tadqiqotlarda yoritib o'tilgan.

Tillar o'rtasidagi o'zaro integratsiya natijasida bir tilga oid element boshqa bir tilga ko'chib o'tib o'zlashadi. O'zlashish jarayoni tilning terminologik sathida ko'proq uchraydi. Bir tildan ikkinchi tilga o'zlashgan termin dastlab adabiy til sathiga joylashib, keyinchalik o'ziga yangi hosila ma'nolarni yuklab so'zlashuv tiliga kirib boradi. Ushbu termin nafaqat til tarkibining boyishiga ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga o'zi bilan yangi madaniy tushuncha olib kiradi va yangi lingvomadaniy birlik sifatida ham namoyon bo'ladi. Dunyo tilshunosligida termin va uning xususiyatlariga oid ilk lingvistik izlanishlar O.V.Dovbish, O.V.Baran, T.V.Shetle, B.N.Raximberdiyev, O.A.Pokrovskaya, Yumatova, N.V.Moryaxina, I.V.Skvortsova, E.N.Lotka va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan.

Til, musiqa va madaniyat mushtarakligi haqidagi qarashlar jahon tilshunosligida V.Bright, M.Herdon, N.Msleod, D.Cohen, A.Patel, J.Montagu, V.L.Benzon,

Grinde, Marker, S.Brovn, Vallin, Vermke, Mende, Mithen, K.Vermke, V.Mende, D.Hargreaves, N.Masataka va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Tilshunos L.V.Ivina termin haqida: "Termin – ilm-fanning inson faoliyati doirasiva bilish nazariyasi maxsus tarmoqlarining asosiy leksik birligi bo'lib, bir vaqtning o'zida obyekt va jarayonlarni nomlash va olamni anglash quroli sifatida xizmat qiladi" [2: 3-6], deya fikr bildiradi. Tadqiqotchining fikrlariga qo'shilgan holda termin bir tilning ikkinchi bir tilga bilish va anglash jarayonining o'zlashishini ham anglatadi deyish mumkin. Mana shunday terminlar sirasiga madaniyat va san'at sohasiga oid musiqa terminlarini ham misol qilib keltirish mumkin. O'zbek tilidagi ushbu terminlarning katta qismini o'zlashma terminlar tashkil qilishi hamda ular o'zida boshqa madaniy birlik ekanligini ko'proq saqlab qolganligi bilan ahamiyatli sanaladi. Musiqa terminlarini jahon tilshunosligida tadqiqot obyekti sifatida o'rgangan O.S.Petrovskaya [3: 3-6] musiqiy terminologiya musiqa madaniyatining tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydi.

Musiqa terminologiyasi – asosini musiqiy tovushlar tashkil etuvchi san'at sohalarining terminlar tizimi.

Musiqa termini – kasbiy tushuncha. Semantik jihatdan yaxlit, og'zaki va yozma shaklga ega. Tilning aniq, funksional jihatdan muhim elementi.

Inson faoliyati u yoki bu tarzda musiqa bilan bog'liqidir. Milliy tilning ozmi-ko'pmi qismini tashkil qiluvchi musiqa terminlari nafaqat musiqachilar, balki tilshunoslar uchun ham o'rganish obyektidir. O'zbek musiqa terminlarining shakllanish va rivojlanish jarayonlarini diaxron va sinxron nuqtayi nazardan tahlil etish tilning tarkibiy rivojini aniqlash imkonini yuzaga chiqaradi. Buning uchun musiqa terminlarining shakllanish manbalarini va bu jarayonda qaysi tillar faol ekanligini belgilab olish lozim bo'ladi. O.S.Petrovskaya rus tili musiqa terminologiyasi tarkibidagi terminlarining 80% Italiya ijrochilik san'atining musiqa terminlari, 12% fransuz, 5% nemis, 2% ingliz, 1% lotin tilidan o'zlashgan terminlar tashkil qilishini aytib o'tadi. Bilamizki, XIX asrdan boshlab ushbu rus tili tarkibidagi musiqa terminlari bevosita va bilvosita o'zbek tili tarkibiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Shuningdek, O.Petrovskaya musiqiy terminlar tarkibida grafik terminlarni alohida ajratish lozimligini ta'kidlab, ular ham ma'lum semantik xususiyatga ega ekanligini aytib o'tadi. Musiqiy terminlar etimologiyasini o'rganish natijasida tillararo aloqani aniqlash mumkinligini va bunda musiqa vosita vazifasini bajarganligini ilmiy asoslاب beradi. Grafik terminlarni belgi, harf, raqam kabi ichki guruhlarga ajratgan. So'z va so'z birikma shaklidagi musiqiy terminlarni esa:

- 1)tempga oid musiqa terminlari;
- 2)dinamikaga oid terminlar;
- 3)artikulyatsiyaga oid terminlar;

4) ekspressiv terminlar

kabi guruhlarga lingvistik tasniflagan.

Rus tilshunosi N.Tkachenko esa: "So'zning semantik ma'nosi, uning umumiyl leksik tizimdag'i o'rni, kelib chiqishi, ishlatalishi, qo'llash sohalari va ekspressiv-stilistik xususiyatlari ularni o'rganayotganda aniqlanadi. Asosiysi ushbu terminlar matn tarkibida muayyan xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Bunda termin funksional tushuniladi, tarkibiy emas. Har bir musiqiy terminning etimologiyasini o'rganish natijasida musiqiy terminologiyaning umumiyl shakllanishi va rivojlanishini aniqlash mumkin."

Musiqiy terminlarning mavzuviyi tasnifi quyidagicha:



1. Musiqiy asboblar va ularning tarkibiy qismlari: gitara, fortepiano;

2. Qo'shiq ovozlari va ularning registrlari: baritone, bas, soprano, tenor;

3. Musiqiy guruhlar va ularning guruhlari: ansambl, duet, orkestr;

4. Kasblari, mutaxassisliklari, rollari: qo'shiqchi, barabanchi;

5. Amallar, mehnat jarayonlari: improvizatsiya, solfedjo;

6. Musiqa janrlari, turlari, yo'nalishlari: balet, ballada, madhiya, opera, qo'shiq, simfoniya, sonata;

7. Tanlangan musiqa asarlari va ularning qismlari: vals, aria;

8. Musiqiy shakl va ularning elementlari" [4: 2-6], – deya fikr bildirib o'tadi.

Tadqiqotchining fikricha ushbu musiqa terminlarining ayrimlari boshqa terminlar uchun umumiyl xarakterga ega. Masalan: Opera o'z ichida hajviy opera, opera-balet, lirik opera kabi guruhlarga ham tasniflanadi. Ansambl – vokal ansambl, kamer ansambl, torli ansambl, xalq chochg'ulari ansambl, fortepiano ansambl kabi guruhlarga bo'linadi. Ushbu terminlar bitta konsepsiyaning alohida jihatlarini belgilaydi. Ushbu ichki guruhlar umumiyl termin asosida birlashadi.

Demak, musiqiy terminologiya sohasi muayyan

qolipda qotib qolmaydi, akincha u doimo rivojlanib boradi. Ushbu rivojlanish jarayonida ayrim terminlar o'rnini boshqa terminga bo'shatib beradi. Ba'zida tushuncha eskirgani sabab termin ham iste'moldan chiqib ketadi. Ba'zida esa muayyan tushunchani ifodalash uchun yangi termin o'zlashtiriladi, yoki til imkoniyatlardan foydalangan holda yaratiladi. Ingliz tilshunosligida musiqa va tilning kognitiv jihatdan mushtarakligi to'g'risidagi qarashlar Aniruddh D.Patel [5:2-7] tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u Amazonkaning Piraxa qabilasi tilida raqamlar va turg'un ma'noni ifodalaydigan atamalar yo'q bo'lishiha qaramay, musiqa hamda unga moslab kuylanuvchi qo'shiqlar borligini ta'kidlaydi. Bundan xulosa

qilish mumkinki, san'at va madaniyat tilning aloqa almashinish, ma'lumot tashish, ta'sir ko'rsatish kabi vazifalarini bajaradi. Shuning uchun ham olim musiqa va tilning kognitiv jihatdan mushtarakligi borasidagi tadqiqotlar tilshunoslikda sanoqli ekanligini aytib o'tib, bunday ishlar sonini ko'paytirish lozim deya ta'kidlaydi.

G'arb musiqa terminologiyasidagi ekspressivlik (hissiy bo'yodkorlik) ifodalovchi quyidagi terminlarni berib o'tadi: major, minor, membr, temp, garmoniya, kuy, artikulyatsiya, dinamika, konsonans, dissonans, registr. Ushbu terminlarni eshitgan zahoti insonda kuy haqidagi umumiy xulosa shakllanishi va ushbu xulosaning paydo bo'lislida termin umumiyl axborot berishini ta'kidlaydi. Shuningdek, ijtimoiy va madaniy bilish asosida ijtimoiy-kognitiv qobiliyat shakllanib til va musiqaning mushtarak holda anglanishiga olib keladi degan qarashlarni ham ilgari suradi. Ch.Darvin ta'lomitiga tayangan holda til va musiqani tabiiy hodisa sifatida tadqiq etgan Aniruddh D.Patel bu jarayonda madaniy bilish va kognitiv anglash jarayonlarini eng

muhim deb izohlaydi.

Musiqa va uning tarkibiy qismi sanalgan terminlarning madaniy xususiyatlari haqida fikr bildirgan M.Herdon va N.Msleod [6:1-4] qo'shiq aytmoq birikmasi madaniy va kognitiv jihatdan faqat insonga xos ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, insonning nutq jarayoni ham ma'lum bir musiqiylikka asoslanadi deydi. Musiqaning shovqindan farqi deya olim uning ma'lum bir madaniy muhit mahsuli ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, musiqa va til doimo uzviy bog'liq tarzda shakllanib, rivojlanib kelgan. Ushbu ikki soha integratsiyasida musiqa terminlari faol bo'lib, o'zida madaniy birlik, til elementi va soha tili kabi xususiyatlari jamlashi bilan ahamiyatlidir. Musiqa terminlarning o'rganilishi, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish orqali muayyan til tadrijini o'rganishga erishish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019.
2. Ivina L.V. Номинативно когнитивное исследование англоязычной терминосистемы венчурного финансирования: дис... канд. филол. наук. – Москва, 2001.
3. Petrovskaya O. Формирование и развитие музыкальной терминологии исполнительского искусства на материале (русского, итальянского, английского, французского языков). Автореф. Майкоп, 2009.
4. Ткаченко Н.Г. К истории музыкальной терминологии. Язык, сознание, коммуникация, Филология, Москва, 1998.
5. Aniruddh D.Patel. Music, language and the brain. Oxford University Press 2008.
6. Marcia Herndon & Norma McLeod. Music as culture. Norwood editions Darby, Pennsylvania, 1982.

Nigina AXMEDOVA,

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Tillarni o'qitish" kafedrasi assistent-o'qituvchisi*

TIL VA MADANIYATNING O'ZARO ALOQASI

Annotatsiya: tilning asosiy vazifalaridan biri shundaki, u o'zida madaniyatni mujassam etadi va uni avloddan-avlodga uzatadi. Ushbu maqolada til va madaniyatning o'zaro bog'liqlik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi va bir nechta tilshunoslarning til va fikrlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: *til, madaniyat, muloqot, jamiyat, milliylik, nutq, kommunikativ jarayon.*

Annotation: one of the main functions of language is that it embodies culture and transmits it from generation to generation. This article reflects on the interconnectedness of language and culture and presents the language and opinions of several linguists.

Key words: *language, culture, communication, society, nationality, speech, communicative process.*

Аннотация: одна из основных функций языка заключается в том, что он воплощает культуру и передает ее из поколения в поколение. В данной статье размышляется о взаимосвязи языка и культуры и представлены язык и мнения нескольких лингвистов.

Ключевые слова: *язык, культура, общение, общество, национальность, речь, коммуникативный процесс.*